

HOZIRGI KUNDA JADAL RIVOJLANIB BORAYOTGAN TILLARNI O'RGANISH JARAYONIDA O'SMIRLARDAGI PSIXOLOGIK JARAYONLARNI TADBIQ ETISH

Bozorboyeva Marjona Jumaboy qizi.

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

Filologiya yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganish jarayonida yuz beradigan o'smirlardagi psixologik jarayonlarni kuzatish, tahlil qilish, umumiy tushunchaga ega bo'lish va o'smirlar ruhiyatidagi ijobiy ta'sirlarini ommaga tadbiq etish, yuzasidan fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, psixologik xususiyatlar, boshlang'ich yosh, o'smirlik davri, motivatsiya, o'ziga ishonch, til kompetensiyasi, stressni kamaytirish va qulay o'quv muhitini yaratish.

Аннотация: В этой статье рассматриваются наблюдения, анализ, общее понимание психологических процессов у подростков, которые происходят в процессе изучения нескольких других иностранных языков, помимо родного языка, которые в настоящее время интенсивно развиваются, и их положительное влияние на психику подростков, с точки зрения применения их к массам.

Ключевые слова: иностранный язык, изучение языка в раннем возрасте, психологические особенности, возраст начала, подростковый возраст, мотивация, уверенность в себе, языковая компетенция, снижение стресса и создание комфортной учебной среды.

Abstract: This article discusses the observations, analysis, and general understanding of the psychological processes in adolescents that occur during the process of learning several other foreign languages in addition to their native language, which are currently being intensively developed, and their positive impact on the psyche of adolescents, in terms of applying them to the masses.

Keywords: foreign language, early language learning, psychological characteristics, starting age, adolescence, motivation, self-confidence, language competence, stress reduction, and creating a comfortable learning environment.

KIRISH

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan O'zbekistonda o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqazo qilmoqda. Ko'plab yoshlar ushbu jarayonga ijobiy yondashgan xolatda turli xil xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish va qayiyat bilan yondashishmoqda. Til o'rganish jarayonida o'smirlarda psixologik

jarayonlar sezilarli darajada o'zgaradi. Bu o'zgarishlar ularning yosh xususiyatlari, ijtimoiy muhit va o'qitish usullariga chambarchas bog'liq.

Dunyo olimlari 10 yoshgacha bo'lgan davrda bola chet tilini oson o'zlashtirishishi bo'yicha yakdil fikr bildirishgan. Bu davrda bola tillarni tushunib emas balki mexanik tarzda o'rganadi shuning uchun xorijiy tilni qollanilishi va talaffuzi oson o'zlashtiriladi. Ammo shunday bo'lsada bolaning har qanday tilning tovushlarini taqlid qilish qobiliyati bilan tug'ilishini hisobga olsak bu jarayonni ertaroq boshlash fikridagilar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Inson miyasini o'rganilish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, chaqaloq tug'ilishidan uch yoshigacha bo'lgan davr bola rivojlanishning eng muhim davri ekanligi isbotlangan. Shuningdek uch yoshli bolaning miyasi katta yoshdagi odam miya faoliyatidan ikki karra tezroq va yaxshiroq ishlashi ham aniqlangan. Shuning uchun ingliz mutaxassislarining fikricha bolaning birinchi yildayoq ikkinchi tilni tanishtirib borish uni oson o'zlashtirishiga yordam bo'lishini ta'kidlashadi. Ammo har qanday xolatda xam bolaning psixologik va til o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish nihoyatda muhim omil ekanligini unitmasligimiz kerak.

Bolaning tayyorligi

Har qanday bola alohida shaxs individ hisoblanadi, tabiiyki ulardagi rivojlanish bosqichlari ham bir biridan farq qiladi. Psixologlarning fikricha bolani erta yoshdan gapirishga majbur qilish yoki uni tengdoshlariga qiyoslab rivojlantirishga harakat qilish ko'p hollarda aks ta'sirini beradi va yaxshi bo'lmagan natijalarga olib keladi. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'rgatishda psixologo-pedagogik xususiyatlarni, ya'ni ularning qiziquvchanliklarini va serhafsasaliklarini inobatga olish lozim. Shuningdek, bolalar uzoq muddat davomida o'z diqqatlarini bir turdagi faoliyatga qarata olmasliklarini yodda tutish zarur. Ota ona o'z farzandini har tomonlama yetuk bo'lishini istaydi va ko'p xollarda bolaning psixologik va fiziologik tayyorligini xisobga olmasdan unga turli fanlardan yuklamalar berishga, til o'rgatishga yoki sport mashg'ulotlariga jalb qilishga xarakat qiladilar. Aksar xolatlarda ota onalar kutilgan natijaga erisha olmagach, bolaga tanbeh berish yoki tengdoshlariga qiyoslash orqali bolaga ta'sir o'tkazishga xarakat qiladilar. Ammo bu ikki urinish ham bolaning o'rganishga bo'lgan rag'batini susaytiradi va atrofdagi narsalarga bo'lgan qiziqishini so'nishiga sababchi bo'lib qoladi. Bunday ko'ngilsiz holatlarni oldini olishda ota ona va tarbiyachilarning roli beqiyosdir.

O'smirlarda til o'rganish jarayonida idrok va psixologiyasing qabul qilishdagi o'zgarishlar.

O'smirlik davrida idrok yanada ongli va tanlab qabul qiluvchi bo'ladi. Xorijioy tillarni o'rganish jarayonida yangi til tovushlari, so'zlari va grammatik tuzilmalariga nisbatan sezgirlik ortadi, vizual va eshitish orqali o'rganish samaraliroq

bo'ladi(video,audio,dialog),tilni real hayotiy vaziyatlarda qabul qilishga qiziqish kuchayadi.

Xotira jarayoninig rivojlanishi.Til o'rganishda xotiraning mantiqiy turi ustunlik qiladi.Ushbu jarayonda o'smirlar so'zlarni mexanik emas,balki ma'nosi bilan eslab qolishga harakat qiladi.Assotsiatsiya,taqqoslash va kontekst orqali yodlash kuchayadi.Til o'rganishning yana bir ustuvor jihati,qoidalarini tushunib o'zlashtirish samaradorlikni oshiradi.

Tafakkur,fikrlash jarayonidagi o'zgarishlar.Bu davrda abstract va mantiqiy tafakkur shakllanadi.O'rganilayotgan xorijiy tilning Grammatik qoidalarini tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati rivojlanadi.O'smirlik davrida til o'rganish jarayonida bo'lgan o'smirlar til tuzilmalarini taqqoslaydi (ona tili va xorijiy til).Jarayondagi muommoli topshiriqlar va bahs-munozaralar tafakkurni faollashtiradi.

Diqqat jarayonidagi o'zgarishlar.Xorijiy tillarni o'rganish jarayonining eng asosiy ahamiyatlaridan biri bu,diqqat nisbatan barqarorlashishidir.Qiziqarli va interaktiv mashg'ulotlar diqqatni ushlab turadi,o'yinlar hamda rolli mashqlar diqqatni kuchaytiradi.

Emotsional holat va motivatsiya.Til o'rganish o'smirlarning hissiy holatiga kuchli ta'sir qiladi.Jarayonda erishgan va erishilayotgan muvaffaqiyatlar-o'ziga ishonchni oshiradi,yo'l qo'yilgan xatolar esa,keskin tanqid-qo'rquv va tortinchoqlikni kuchaytiradi.Amalga oshirilgan harakatlar natijasida erishilgan yutuq,rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash ichki motivatsiyani rivojlantiradi.

Ijtimoiy-psixologig o'zgarishlar.Globalashuv davrida xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish va kuchli harakat bilan yondashgan har bir o'smirlar muloqotga ehtiyoj sezadilar.O'smirlarda til orqali o'z fikrini ifodalashga intilish kuchayadi.Guruh orqali ishlash va muloqptli mashqlar hamda ijtimoiy faollikni oshiradilar.Ular uchun chet tilini bilish o'zini namoyon qilish vositasiga aylanadi.

XULOSA

Bolalarning kelajakda komil inson va yetuk kadr bo'lib yetishishlari hamda yuksak maqsadlar bilan kamol topishi eng avvalo oila muxuti,mahalla e'tibori hamda oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim va tarbiyasiga bog'liqdir.Demakki o'smirlik davrida o'rganilayotgan har bir bilim,ko'nikma va hattoki kuzatib boriladigan ilmiy amaliy jarayonlar,har bir o'spirin uchun katta ahamiyatga egadir. Axir ota bobolarimiz bejizga ta'kidlashmagan-ku "yoshlikda olingan bilim-toshga o'yilgan naqsh kabidir".Shu sababli hozirgi kunda rivojlanib borayotgan O'zbekistonda nafaqat o'z onatili bilan cheklanmasligi hamda yetakchi bo'lgan davlatlarning xorijiy tillarini o'rganish uchun barcha qulay sharoitlar yaratib berilgan.Shu bilan birgalikda xorijiy tillarni o'rganish yoshlik chog'laridan yo'lga qo'yilgan.Chunki til o'rganish jarayoni o'smirlarda **idrok, xotira, taffakkur, diqqat, emotsiya va motivatsiya** kabi psixologik jarayonlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Shuning uchun ta'lim jarayonida o'smirlarning

psixologik xususiyatlarini xisobga olish ,interaktiv va rag'batlantiruvchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziev, E. G' "Yosh va pedagogik psixologiya". Toshkent: Innovatsiya Ziya, 2021.
2. Xolmatova, M. A. "Chet tillarni o'qitishda psixologik yondashuvlar". Toshkent: O'qituvchi, 2022.
3. Gregersen, T., & Mercer, S. "The Routledge Handbook of the Psychology of Language Learning and Teaching". London: Routledge, 2020 (yangilangan nashrlari 2023–2024).
(Til o'rganish psixologiyasi bo'yicha eng muhim zamonaviy qo'llanma)
4. Lightbown, P. M., & Spada, N. "How Languages Are Learned (5th edition)". Oxford: Oxford University Press, 2021.

